

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN O‘ZBEK
(DAVLAT) TILI FANIDAN MALAKA TEST SINOVU TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN O‘ZBEK (DAVLAT) TILI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlarida pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat o‘zbek (davlat) tili fani o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llanadigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi o‘zbek (davlat) tili fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasini baholashdan iborat. Baholash natijalari o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi

O‘zbek tili fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 80 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi o‘zbek (davlat) tili fanining asosiy mazmun yo‘nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari talaffuz va imlo, punktuatsiya, uslubiyat, lingvistik tahlil, matnni tushunishga oid bilim hamda ko‘nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari, amaldagi o‘quv dasturlari bo‘yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi hamda baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimot

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Tildan amaliy foydalanish		
Talaffuz va imlo	– talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish; – imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlay olish; – bosh harflar imlosi, qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish qoidalarini bilish va foydalana olish; – fonetik o‘zgarishlar (tovush ortishi, almashishi va tushishi)ni farqlay olish.	10
Puntuatsiya	– yozma nutqda tinish belgilarini (so‘roq, undov, ko‘p nuqta; vergul, tire, ikki nuqta; nuqtali vergul, qavs, qo‘shirnoq) to‘g‘ri qo‘llay olish.	6
Uslubiyat	– qo‘shimchalarning kontekstdagi vazifasini tushunish, farqlash hamda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘zlarning kontekstdagi ma‘nosi va vazifasini tushunish, farqlash hamda to‘g‘ri qo‘llash.	6
Til nazariyasi va lingvistik tahlil		
Lingvistik tahlil	– tovushlarni tasniflash, farqlash va amaliy vaziyatda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘z va uning ma‘nolarini farqlash va amaliy vaziyatda to‘g‘ri qo‘llash; – so‘z tarkibini ma‘noli qismlarga ajratish, qo‘shimcha turlarini farqlash, amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish; – so‘z turkumlari - mustaqil, yordamchi va alohida olingan so‘zlar guruhini farqlash, amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish;	14

	– matn (gap)ni hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaktik me’yorlari asosida tushunish, farqlash va tahlil qilish.	
Matni tushunish		
Matn tahlili	– badiiy, ilmiy matn mazmunini anglash; – mumtoz matn mazmunini anglash.	4
Jami:		40 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanishini tushunish	20
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	17
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	3

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig‘iga berilgan ballar yig‘indisi asosida aniqlanadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun **2 ball**, noto‘g‘ri javob uchun **0 ball** beriladi. Test sinovining eng yuqori natijasi 80 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. O‘zbek (davlat) tili fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, test topshiriqlari mazmuni quyida tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyillar va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Nomzodlar mazkur adabiyotlar mazmunini yodlash orqali yuqori

ball olishni kutmasliklari kerak. Tavsiya etilgan adabiyotlar malaka sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish manbayi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tili

1. 2-sinf. O‘zbek tili darsligi (I, II qism) darslik / Sh.T.Axmetova, N.R.Normatova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

2. 3-sinf. O‘zbek tili darsligi (I, II qism) darslik / Sh.T.Axmetova, N.R.Normatova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

3. 4-sinf. O‘zbek tili darsligi (I, II qism) darslik / Sh.T.Axmetova, N.R.Normatova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

4. 5-sinf. O‘zbek tili darsligi. N.Rasulov, D.Usmonova, Y.Hasanova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

5. 6-sinf. O‘zbek tili darsligi. D.Xidoyatova, N.Rasulov, N. Yuldasheva, N.Usmonova, Y.Xasanova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

6. 7-sinf. O‘zbek tili darsligi. D.Xidoyatova, M.Tulasheva, N.Rasulov, N. Matalipova, N.Allamberganova, O.Beganchova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

7. 8-sinf. O‘zbek tili darsligi. D. Xidoyatova, I. Bakirova, F. Rahmatova, N. Rasulov — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025.

8. 9-sinf. O‘zbek tili darsligi. A.Rafiyev, G.Muxamedjanova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

9. 10-sinf. O‘zbek tili darsligi. G.Asilova, D.Xidoyatova, N.Rasulov, G.G‘ulomova, I.Xojiyeva, G.Sattorova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

10. 11-sinf. O‘zbek tili darsligi. X.Muxitdinova, F.Tolipova, D.Nuriddinova, Sh.Abduraimov, R.Eshboyeva. – Toshkent: Davr nashriyoti, 2018.

11. 11-sinf. O‘zbek tili darsligi. X.Muxitdinova, F.Tolipova, D.Nuriddinova, Sh.Abduraimov, R.Eshboyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.

12. Dilnavoz Yusupova “G‘azallar sharhi” – Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi 27-jild. Toshkent – 2022.

13. “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati” – E.A.Begmatov, A.R.Madvaliyev, Y.R.Odilov. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023.

14. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”– A.Madvaliyev, N.Mahkamov. D.Xudoyberganova, O.Odilov. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.